



**Sohiba RAIMQULOVA,**  
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: [sohibaraimqulova@gmail.com](mailto:sohibaraimqulova@gmail.com)

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD S.Raimova taqrizi asosida

## ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYALARI VA IJODKOR KONSEPSIYASINING O‘RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya

G‘arb ma‘naviyati va adabiyotida yuz bergan ruhiy-falsafiy inqirozni ikki asosiy intellektual manba bilan bog‘lab talqin qilish mumkin. Bular: Fridrix Nitsche falsafasi va Zigmund Freyd psixanalitik ta‘limoti. Ushbu ikki tendensiyani nafaqat individual nazariy qarashlar, balki butun bir sivilizatsion ongni shakllantirgan madaniy paradigma sifatida baholaydi. Birinchi omil sifatida Nitsche qarashlariga murojaat qilinishi bejiz emas. Nitsche klassik axloqiy metafizikani rad etib, xristian axloqini “zaiflar axloqi” sifatida talqin qiladi va inson tabiatidagi kuch, iroda hamda zo‘ravonlik unsurlarini ontologik zarurat darajasiga ko‘taradi.

**Kalit so‘zlar:** Axloqiy nuqson, oppozitsiya, Freyd ta‘limoti, “Edip kompleksi”, repressiv kuch, ma‘naviy antropologiya.

## ON THE STUDY OF MODERN UZBEK STORIES AND THE AUTHOR'S CONCEPT

Annotation

The spiritual and philosophical crisis in Western spirituality and literature can be interpreted in connection with two main intellectual sources. These are: the philosophy of Friedrich Nietzsche and the psychoanalytic doctrine of Sigmund Freud. These two trends are evaluated not only as individual theoretical views but also as a cultural paradigm that has shaped the entire civilizational consciousness. It is no coincidence that Nietzsche's views are cited as the first factor. Rejecting classical moral metaphysics, Nietzsche interprets Christian morality as "the morality of the weak" and elevates the elements of power, will, and violence in human nature to the level of ontological necessity.

**Key words:** Moral defect, opposition, Freud's teachings, "Oedipus complex," repressive force, spiritual anthropology.

## К ИЗУЧЕНИЮ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ РАССКАЗОВ И ТВОРЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИИ

Аннотация

Духовно-философский кризис в западной духовности и литературе можно интерпретировать в связи с двумя основными интеллектуальными источниками. Это философия Фридриха Ницше и психоаналитическое учение Зигмунда Фрейда. Эти две тенденции рассматриваются не только как отдельные теоретические взгляды, но и как культурная парадигма, сформировавшая целостное цивилизационное сознание. Неслучайно в качестве первого фактора обращаются к взглядам Ницше. Отвергая классическую этическую метафизику, Ницше интерпретирует христианскую мораль как "мораль слабых" и возводит элементы силы, воли и насилия в человеческой природе до уровня онтологической необходимости.

**Ключевые слова:** Нравственный недостаток, оппозиция, учение Фрейда, "Эдипов комплекс," репрессивная сила, духовная антропология.

**Kirish.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yovuzlik axloqiy nuqson sifatida emas, balki ijodiy energiyaning ifodasi sifatida falsafiy jihatdan talqin etiladi. Bu esa G‘arb adabiyotida va san‘atida an‘anaviy ezgulik va yovuzlik oppozitsiyasining yemirilishiga, axloqiy muammoning kuchayishiga olib kelgan.

Ikkinchi muhim omil sifatida Freyd ta‘limoti, xususan, “Edip kompleksi” nazariyasining ijtimoiy-madaniy maydonga keng singib ketishi ko‘rsatiladi. Dastlab klinik va terapevtik kontekstda ishlab chiqilgan ushbu nazariya vaqt o‘tishi bilan antropologik va madaniy universal tushuntirish modeli sifatida qabul qilina boshladi. Natijada shaxs ruhiyati biologik instinktlar va ongsiz mayllar bilan haddan tashqari bog‘lab qo‘yildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Matnda M.G.Yaroshevskiy fikriga tayangan holda, freydizmining G‘arb jamiyati uchun “yagona e‘tiqod”ga aylangani ta‘kidlanadi. Bu yerda “e‘tiqod” tushunchasi metaforik ma‘noda qo‘llanib, psixanalizning ilmiy nazariya chegarasidan chiqib, diniy mavqega ko‘tarilganini anglatadi. Ayniqsa, “ota” va “oila” masalasiga berilgan freydoni talqinlar jamiyatning axloqiy va ma‘naviy tayanchlariga putur yetkazgani qayd etiladi.

Freyd talqinida “ota” obrazi bola ongida repressiv va dushman kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu

yondashuv madaniy darajada umumlashtirilganda, otalik hokimiyati va nasliy davomiylik g‘oyalari shubha bilan qarashni boshlaydi. Natijada oila muqaddas institut sifatidagi maqomini yo‘qota boshlaydi. Individual istak va instinktlar esa kollektiv axloqiy mas‘uliyatdan ustun qo‘yiladi.

Shu tariqa, ilgari surilgan asosiy g‘oya shundan iboratki, Nitsche va Freyd ta‘limotlari G‘arb tafakkurida ma‘naviy antropologiyaning tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lib, insonni axloqiy mas‘ul subyekt emas, balki instinktlar majmuasi sifatida talqin qilish tendensiyasini kuchaytirgan. Bu esa adabiyot va san‘atda ruhiy parokandalik va ekzistensial bo‘shliq motivlarining yetakchi mavqega chiqishiga zamin yaratgan.

Keyingi yillarda o‘zbek nasrida ham ayrim ijodkorlarning mazkur g‘ayriinsoniy g‘oyalarga, ya‘ni “shaytanat afsunlari”ga bilib-bilmay moyillik ko‘rsatayotgani seziladi. Bu holat milliy adabiyot uchun muhim ogohlantiruvchi belgi sifatida baholanishi lozim. “Yozuvchi yoki san‘atkor o‘zi yashayotgan jamiyat hayotida mavjud bo‘lgan muayyan dunyoqarash va kayfiyatlar, sinflarning ta‘sirida bo‘lmasligi mumkin emas”[Qo‘shjonov, 2018:302]. Yozuvchi yoki san‘atkor ijtimoiy borliqdan tashqarida shakllanadigan abstrakt ong egasi emas. Balki muayyan tarixiy davr, ijtimoiy tuzilma va madaniy muhit mahsulidir. Shu bois u yashayotgan jamiyatda hukmron bo‘lgan

dunyoqarashlar, ijtimoiy kayfiyatlar va sinfiy munosabatlar uning estetik qarashlari, mavzu tanlovi, obrazlar tizimi hamda badiiy ifoda usullariga muqarrar ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy ongning bir shakli sifatida san'at jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlar bilan dialektik aloqada rivojlanadi. Xususan, ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini va ular o'rtasidagi ziddiyatlar yozuvchining voqelikni idrok etish mezonlarini belgilab, badiiy asarda aks etuvchi muammolar doirasini kengaytiradi yoki cheklaydi. Bu jarayonda ijodkorning shaxsiy pozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi: u mavjud ijtimoiy qarashlarni bevosita aks ettirishi, tanqidiy qayta talqin qilishi yoki ularga qarshi estetik muqobil konsepsiya yaratishi mumkin.

Demak, san'atkor jamiyat ta'siridan xoli bo'la olmas ekan, uning ijodi ijtimoiy muhitning passiv ko'zgusi bo'lib qolmaydi; aksincha, u jamiyat ongiga faol ta'sir etuvchi, ijtimoiy jarayonlarni estetik jihatdan anglash va baholashga xizmat qiluvchi murakkab tafakkur shakliga aylanadi. Shu jihatdan, ijodkor shaxsiyati bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatni biryoqlama sabab-oqibat doirasida emas, balki o'zaro ta'sir va uzviy bog'liqlik tizimida talqin etish ilmiy jihatdan asoslidir.

Epik asarlar, odatda, hajman yirikligi va kompozitsion murakkabligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular lirik turdagi asarlardan farqli ravishda bir zarb bilan mutolaa qilinadigan matnlar sirasiga kirmaydi. Epik asarning badiiy ta'sir kuchi ham, ko'pincha, bir zumda emas, balki voqealar rivoji, obrazlar tizimi va syujet qatlamlarining bosqichma-bosqich ochilishi jarayonida shakllanadi. Mazkur xususiyat epik matnlarni tahlil qilishda alohida metodologik yondashuvni taqozo etadi. Bunday asarlarda estetik ta'sirning ko'p bosqichli tabiati ustuvor bo'lib, o'quvchi ongida tuyg'ular va fikrlar ketma-ket, ba'zan esa parallel tarzda yuzaga keladi. Epik asarda ifodalangan hissiy kechinmalar bir yo'nalishli emas, balki voqeyi holatlar, personajlararo munosabatlar va konfliktlar dinamikasi ta'sirida shakllanadi. Natijada epik matn o'quvchidan nafaqat hissiy hamohanglikni, balki intellektual mushohada va izchil tahlilni ham talab etadi.

Shu bois epik asarni tahlil etishda uning hajmi, syujetning keng qamrovliligi, obrazlar tizimining ko'p qatlamlilik hamda badiiy ta'sirning vaqt va makon davomida shakllanish xususiyatlari asosiy nazariy mezonlar sifatida e'tiborga olinishi lozim.

Nasriy asarda voqelik har doim muayyan nigoh — asosan roviy yoki personaj nigohi orqali idrok etiladi. “Darhaqiqat, ijodkor inson dunyoni, undagi hodisalarni idrok etib, idrok etganlarini barini qalbi va ongida sintez kilib, natijada obraz yaratayotgan chog'ida his qilgan ruxiy jarayonlarning bari badiiy tafakkurida, u aytmoqchi bo'lgan fikr va g'oyalarda mujassamlashadi” [Raxmonova, 2021:14]. Ijod jarayoni san'atkorning tashqi voqelikni passiv aks ettirishi bilan cheklanmaydi. Balki murakkab idrok, sintez, ifoda zanjiri orqali amalga oshadi. Ijodkor inson dunyoni va undagi hodisalarni idrok etar ekan, ularni bevosita, xolis shaklda emas, balki o'zining ruhiy holati, intellektual tajribasi hamda estetik qarashlari prizmasidan o'tkazadi. Ushbu idrok jarayoni individual ongda qayta ishlanib, psixologik va ma'naviy omillar bilan sintezlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nigohlarning almashuvi muhim badiiy-estetik vazifani bajarib, ayrim hollarda kompozitsion bo'laklar chegarasini ham belgilaydi. Bu jarayonni Cho'lponning “Oyidin kechalarda” hikoyasi misolida aniq kuzatish mumkin. Asarda roviy birinchi jumladanoq badiiy tugunni yuzaga chiqaradi: “Zaynab kampir bir narsadan cho'chib uyg'ondi”. Keyingi tasvirlarda esa qahramonning ichki holati bosqichma-bosqich ochilib, o'quvchi nigohi kampir nigohi bilan uyg'unlashadi: “Kampir u yoq-bu yog'iga yaxshilab qarab, oydinga hech bir qora-mora uchratmagandan keyin yana bolishga boshini qo'ydi”. Ushbu

nigoh almashuvi hikoyaning psixologik chuqurligini ta'minlaydi va uning badiiy ta'sir kuchini oshiradi.

Shundan so'ng muallif nigohi kampirdan uziladi-da, oppoq oydin kecha tasviriga o'tiladi: “Tunni bo'ylab chopishib, hurushib, qorushib chiqqan itlar tovushi sekin-sekin yo'qola boshladi” kabi. O'quvchida boshlang'ich hosil qilingan istagi yanada kuchayadi: shunday osoyishta kechada kampirni cho'chitgan, uyqusini ko'chirgan narsa nima bo'ldi ekan? Roviylar o'zini ham ayni shu savol o'yantirayotgandek tutadi. Nigohini kampirdan uzib, tevarak-atrofga alanglaydi: savolga javob izlaydi go'yo” [Quronov, 2018:19]. Hikoya matnida roviy obrazining voqelikka munosabati faqat axborot yetkazuvchi instansiya bilan cheklanmay, balki badiiy idrokning faol subyektivi sifatida shakllanadi. Roviylar voqealar rivojini go'yoki “oldindan biluvchi” yoki retrospektiv baholovchi mavqedan emas, balki hikoya qilish jarayonining ayni lahzasida voqelikni kuzatayotgandek pozitsiyadan idrok etishi bilan ajralib turadi. Bu holat immanent vaqt rejimi yoki simultanik idrok effekti sifatida talqin qilinadi va badiiy matnda real vaqt illyuziyasini yuzaga keltiradi. Natijada roviy o'quvchi bilan bir xil bilish maydoniga joylashib, voqealar rivojini u bilan baravar kashf etadi.

**Tahlil va natijalar.** Gap qurilishining mazkur tartibi hikoyada ustuvor bo'lgan nuqtai nazar poetikasi (point of view poetics) ning strukturaviy modelini ifodalaydi. Bunda muallif ongli ravishda roviy bilimi va ko'rish doirasini cheklab, fokalizatsiyani kuchaytiradi. Roviylar voqelikka subyektiv nigoh bilan yondashgan sari badiiy matn obyektiv bayon shaklidan uzoqlashib, ichki kuzatuv, sezgi va idrok jarayonlariga tayanadi. Bu esa hikoya janriga xos bo'lgan psixologik zichlik va semantik ko'pqatlamlilikni ta'minlaydi.

Roviylar va o'quvchi idrokining bir nuqtada tutashuvi natijasida badiiy matnda kuzatuvchi pozitsiya faollashadi. O'quvchi voqelikka tayyor xulosalar orqali emas, balki roviy bilan birgalikda kechayotgan idrok jarayoni orqali jalb etiladi. Bu holat tabiiy masofaning qisqarishiga, empatik aloqaning kuchayishiga va matnning estetik ta'sirchanligining ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, subyektiv yondashuvning kuchayishi voqelikning ko'pma'noli talqinlariga yo'l ochib, hikoyani qat'iy interpretatsiyadan ko'ra ochiq semantik maydonga aylantiradi.

Natijada hikoyaning kompozitsion va semantik tuzilishi e'tibor markaziga olingan nuqtai nazarning poetik imkoniyatlarini mujassam etuvchi nazariy asosga ega bo'ladi. Hikoya shaklan ham, mazmunan ham roviy nigohining chegaralari bilan belgilanib, badiiy voqelikni idrok etishning subyektiv modeli sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, mazkur usul zamonaviy hikoyachilikda strukturaning yetakchi mexanizmlaridan biri sifatida ilmiy jihatdan asoslangan va poetik samaradorlik nuqtai nazaridan yuqori baholanadi. Buni quyidagi parchada yaqqol ko'rish mumkin: “bu yig'i kelinchakning uyidan eshitilgan kabi bo'lar edi. Yuragi o'ynadi. Darrov darchani ochib u hovliga kirib, o'g'lining uyi bilan bosib kelib, sekingina kelinining uyiga yaqinlashdi. Yig'i uydan eshitilgan edi. Yana quloq berdi. Tovush kelinining tovushi edi” [Quronov, 2018:19]. Hikoyada qo'shimcha nigohning paydo bo'lishi emas, balki mavjud nigohning funksional jihatdan ikkiga ajralishi kuzatiladi. Ushbu ikki nigohning vazifalari aniq taqsimlangan: personaj nigohi tashqi voqelikdagi o'zgarishlarni idrok etishga yo'naltirilgan bo'lsa, roviy nigohi personajning ichki holati va ruhiy evrilishlarini kuzatishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchi borliqdagi hodisalarni personaj nigohi orqali, qahramon ruhiyatidagi siljishlarni esa roviy nigohi orqali qabul qiladi. O'qish jarayonida mazkur ikki idrok kanali o'quvchi nigohida birlashib, badiiy idrokning yagona fokusini hosil qiladi. Bu esa o'quvchining hikoya ruhiga chuqur kirib borishini ta'minlab, asarning estetik ta'sir kuchini sezilarli darajada oshiradi. “Taxlil imkoniyati jismoniy emas,, aqliy-shuuriy

faollikni kuchaytiradi, qahramonlar faolligi zoxirdan evrilishlar makoni - botinga kuchadi"[ Sarchashma mavjlari, 2016:172]. Asarda diqqat markazi tashqi voqealar ketma-ketligidan qahramon ongida kechayotgan ruhiy jarayonlar, tafakkur siljishlari va ichki konfliktlarga yo'naltiriladi. Natijada hikoya voqeligi ko'z bilan kuzatiladigan hodisalardan ko'ra, ong orqali idrok etiladigan holatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Qahramonlar faolligining "zohir"dan "botin"ga ko'chishi kompleks strukturaning psixologik yo'nalishda qayta tashkil etilganidan dalolat beradi. Endilikda qahramonning harakati tashqi makonda sodir bo'ladigan jismoniy faoliyat bilan emas, balki ichki makonda kechadigan qarorlar, ikkilanishlar, xotiralar va sezgi impulsining harakati bilan belgilanadi. Bu jarayon badiiy matnda ichki

monolog, psixologik tafsilot, subyektiv idrok kabi poetik vositalarning faollashuviga olib keladi.

Mazkur evrilish badiiy asarning tahliliy imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quvchi qahramon faoliyatini tashqi mezonlar asosida emas, balki uning ruhiy holati, ma'naviy tanlovi va ongiy tajribasi orqali anglashga majbur bo'ladi. Shu tariqa, badiiy matn faqat voqeani bayon qiluvchi makon emas, balki inson ongining murakkab mexanizmlarini ochib beruvchi psixologik laboratoriya vazifasini bajaradi.

**Xulosa.** Demak, jismoniy harakatning cheklanishi evaziga aqliy-shuuriy faollikning kuchayishi hikoya janrida subyektivlikning ustuvorligini, botiniy makonning badiiy markazga aylanishini ta'minlaydi. Bu esa zamonaviy nasrda qahramonning ichki dunyosini chuqur tahlil qilishga imkon beruvchi muhim estetik va nazariy tamoyil sifatida ilmiy jihatdan asosli holda baholanishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Qo'shjonov, Matyoqub. Tanlangan asarlar: adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – T.: "Sharq", 2018. – 302-b.
2. Raxmonova X. Xurshid Do'stmuxammad nasri badiiyati. /Adib qissa va xikoyalari misolida. -Toshkent: "Poytaxt ekssklusiv" nashriyot. 2021 yil. 14 b.
3. Куронов Д. Назарий қайдлар. - Тошкент: Академнашр. 2018. - Б. 19. (128)
4. Sarchashma mavjlari. - Toshkent: "Mashhur-press" nashriyoti, 2016. - 172 b.
5. Қўшжонов М. Асар композицияси. Сайланма, 2-том. Тошкент, 1983.
6. Камолов Ж. Лирик шеърятда композиция. Филол. фан. ном...дисс-я. Тошкент, 1970.
7. Носиров Р. Халқ кўшиқлари комозицияси. Тошкент: Фан, 2006.
8. Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида одам образи: Филол. фанлари номзоди... дисс. -Т., 1948.;
9. Турдиев Ш. 20-йиллар ўзбек ҳикояси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. -Т., 1968.;
10. Йўлдошев Қ. Ўзбек совет сатирик ҳикоячилигида характер тасвири эволюцияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. -Т., 1985.; Одилов Ш. Кейинги йиллар ўзбек ҳикояларида замондошимиз образи (70-80 йиллар): Филол. фанлари номзоди ... дисс... автореф. -Т., 1989.;